



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA SHE'R VA SHOIRLIK MASALALARIGA MUNOSABAT

Xalilova Ruxsora Raupovna,

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Abduraxmonova Muxtasarxon Abdujabbor qizi,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqining sevimli, erka shoiri Muhammad Yusufning she'riyatida she'r va shoirlikka munosabati yoritilgan. Maqolada ijodkorning xalqona ifodasi, shoirlikka yondashuvi, she'r borasidagi mag'zi to'q, fikrga boy, teran va samimiy ifodalari tahlil qilindi. Shoirning o'ziga xos fikr mulohazalari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: she'r, shoirlik, ijod dardi, she'riyat, xalqona ifoda, qo'shiq.

Аннотация. В статье рассматривается отношение к поэзии и поэзии в поэзии любимого поэта узбекского народа Мухаммада Юсуфа. Анализируются народная манера выражения, подход автора к поэзии, его содержательные, вдумчивые, глубокие и искренние высказывания о поэзии. С помощью примеров раскрывается самобытность мысли поэта.

Ключевые слова: стихотворение, поэзия, творческая боль, поэзия, народное выражение, песня.

Abstract. This article examines the attitude towards poetry and poetry in the poetry of Muhammad Yusuf, the beloved male poet of the Uzbek people. The article analyzes the author's folk expression, approach to poetry, and his meaningful, thoughtful, deep, and sincere expressions about poetry. The poet's unique thoughts are revealed with the help of examples.

Keywords: poem, poetry, creative pain, poetry, folk expression, song.

"O'zbekiston xalq shoiri" Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Shoirning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yozilganga o'xshab tuyuladi. Ammo u kabi yozish boshqa hech shoirning qo'lidin kelmagan. Uning oson yozilganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarini yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga tortib oladi.

Muhammad Yusuf ijodi o'zining rang-barang mavzulari bilan ajralib turadi. She'rlarida Vatan, ona yurtga muhabbat, sevgi, sadoqat mavzulari yetakchilik qiladi. Shoir o'z she'rlarini goh go'zal malakka, goh ona Vatanga, goh dardga malhamga mengzaydi.

She'riyat,

Ey bevafo sanam!

Qo'llaringdan mahkam tutarman,

Sendan har narsani kutarman,

Sen bir malham.

Sen bir shirin g'am... [10]

She'riyatga murojaat etar ekan, undan hamisha umidvor bo'ladi. Qo'llaridan mahkam tutib g'amni ham, malhamni ham o'zidan kutadi. Boshqa bir she'rda esa "Bu dunyoning shirin dardi she'rlar ekan" deya yozadi ijodkor.

Muhammad Yusufning shoirlar haqidagi fikrlari ham o'zgacha.

Shoirlar - ohular, o'tlar dalasi,

Dardim ko'ngillarning dardli qal'asi.

Ular goh bir og'iz shirin so'z quli,

Goh dunyoni olar bir iborasi. [20]

Chindan-da shoirlar ohularga o'xshaydi. Ohularning ko'zlarida butun borliq aks etgani singari shoirlarning she'rlarida bor haqiqatlar o'z ifodasini topadi. O'zlari yaxshi gapga zor bo'lgani holda, qalami kuchi bilan "dunyoni olishi" mumkin.

Yana bir she'rida:

Shoir shunday ko'pki, ularga yer tor,
Hammasi mashhur va hammasi nomdor.
Ulug'vor ularga yetmoq ko'p dushvor.
Ammo ular oyga bosib yuzini,
Turganda osmonin bag'riga ilk bor
Biz olib borgaymiz tuproq isini,
Gulday dimog'iga tutamiz, qizim,
Biz hali hammadan o'tamiz, qizim!..

Haqiqatan ham, chin shoirda manmanlik, mansabparastlik, kekkayish degan narsalarga o'rin yo'q. Haqiqiy shoirda qishloqning qalbi, xalqning dardi bo'lmog'i lozim. Muhammad Yusuf bu borada ba'zi qo'shtirnoq ichidagi "shoir"larga qarata shunday deydi:

Qon to'la ko'zida yaltirar hasad,
Bular na shoir, na omadsiz odam,
Ular oyoq qo'ygan har zina jasad,
Shular gumdon qilgan Qodiriyni ham... [53]

Muhammad Yusuf ijodida she'rga munosabat, shoirlikka yondashuv ham uslubi singari sodda, xalqchil. U bisotida borini kapalakka, hayotini kamalakka, shuhratini bir tilim handalakka, barcha yozgan she'rlarini bir kosa sumalakka almashgudek sofdil, yuksak iste'dod sohibidir. Shu bilan birga Vatan uchun fidoyi, ona tabiatini qadrllovchi, muqaddas zamindagi bedapoyani Rimga, Parij restorani tandirga, bahorda Baxmalda tug'ilgan qo'zisini arab ohusiga almashmaydigan haqiqiy o'zbekning mard o'g'loni. Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, deganlaridek o'sha sayroqi qush shoir yuragiga oshyon qurgan bo'lsa ajab emas. Garchi bevaqt o'lim adabiyotimiz gulshanida barq urib turgan bir chechakni uzib ketgan bo'lsada, shoir qalbidan jaranglab chiqqan o'tli navolar yillar o'tsada yangrayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Yusuf. Halima enam allalari. She'rlar va dostonlar. Toshkent "Cho'lpon" 1991.
2. Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida/ Muharrir U.Qo'chqorov. – Toshkent : "Adib" nashriyoti, 2014. – 232b.
1. Muhammad Yusuf. Iymon qo'shig'i. (She'rlar) - A., «Andijon nashriyot-matbaa» OAJ, 2004 yil. 80 bet.
2. Muhammad Yusuf. Alyorim qolur. She'riy to'plam. — T.: «Ziyo nashr» Mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2019. — 160 b.
3. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 291-298.
4. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(5), 237-242.
5. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).